

KASBIY RIVOJLANISH BO'YICHA ASOSIY ILMIY YONDASHUVLAR VA NAZARIY KONSEPSIYALAR

Yo'ldoshqulov A.B

Aniq va ijtimoiy fanlar Universiteti 2-bosqich magistranti asadbekyoldoshqulov6@gmail.com

Bugungi kunimizda mamlakatimizda barkamol, malakali va kasbiy jihatdan yetuk avlodni shakllantirish, yoshlarni o'z kasbiga sadoqatli, mas'uliyatli va raqobatbardosh tarzda tarbiyalashga alohida e'tibor berilmoqda. Mustaqillikning dastlabki davrlaridanoq ta'lim tizimini isloh qilish, kasbiy tayyorgarlikning sifatini oshirish hamda yoshlar rivojlanishida psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash masalalariga katta ahamiyat berildi. Ma'lumki, kasbiy rivojlanish shaxsning ong darajasi, qiziqishlari, motivlari va psixologik xususiyatlari bilan belgilanadigan murakkab jarayondir [1].

Kasbiy rivojlanish shaxsning psixik va ijtimoiy xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning qobiliyatlari, qiziqishlari, motivatsiyasi, psixologik moslashuvchanligi va tajribasi asosida shakllanadigan murakkab jarayondir. Shu sababli, kasbiy rivojlanish masalasi fanda doimo dolzarb bo'lib kelgan. Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muhitning o'zgarishi shaxsning kasbiy yo'nalishini belgilaydi, shuningdek, oilaviy muhit, tarbiya va shaxsiy fazilatlar ham uning kasbiy o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi [2].

Kasbiy rivojlanish muammosi fanda doimo dolzarb bo'lib kelgan. Buning sababi, birinchidan, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy talablar har bir insonning kasbiy shakllanishini ma'lum yo'nalishda rivojlantiradi; ikkinchidan, shaxsning oilaviy muhiti, tarbiyasi, ijtimoiy tajribasi va shaxsiy xususiyatlari uning kasbiy o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [2]. Har bir insonning kasbiy shakllanishi uning individual imkoniyatlari, qiziqishlari, temperament tipi, aqliy salohiyati va psixologik moslashuviga shaxs xususiyatlariga tayanadi. Kasbiy rivojlanish bo'yicha turli olimlar tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyalar turli yo'nalishlarda bo'lib, har biri shaxsning kasbiy shakllanishining o'ziga xos jihatlarini yoritadi.

Kasbiy rivojlanish nazariyalariga ko'ra, kasbiy shakllanish ma'lum bosqichlarda kechadi. Masalan, D. Superning "Kasbiy hayot davri" konsepsiyasida kasbiy rivojlanish o'sish, izlanish, amalga oshirish, barqarorlashuv va pasayish bosqichlariga bo'linadi. U shaxsning kasbiy "Men-kontsepsiyasi" kasb tanlash va kasbiy o'sishning asosiy omili ekanini ta'kidlaydi [1].

Zamonaviy kontekstdagi o'zgarishlar, masalan, uzluksiz ta'lim, qayta tayyorlov va reskilling, bu konsepsiyani yanada dolzarb qiladi. Hozirgi kunda shaxs kasbiy barqarorlashuvni ma'lum bir yoshda emas, balki butun hayoti davomida davom ettiradi



Kasbiy rivojlanishning differensial yondashuvi (F. Parson, G. Myunstenberg) shaxsning qobiliyatlari, qiziqishlari va temperamentiga mos ravishda kasb tanlash zarurligini qayd etadi. Bu yondashuvga ko'ra, har bir kasb o'z talablari bilan shaxsning psixologik xususiyatlariga mos kelishi kerak [2]. Shuning uchun ham kasbiy diagnostika vositalari yoshlarni to'g'ri yo'naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda bu yondashuv psixodiagnostika va professional yo'naltirish sohasida keng qo'llanmoqda. IQ va EQ testlari, kreativlik va kompetensiyalar monitoringi orqali yoshlarning kasbiy yo'nalishi oldindan aniqlanadi. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot va texnologik o'zgarishlar sharoitida shaxsning bir nechta kasbiy yo'nalishga moslashuvchanligi ham muhim ahamiyatga ega.

Faoliyat yondashuvi (A. N. Leontyev, S. L. Rubinshteyn) shaxsning kasbiy rivojlanishini bevosita faoliyat jarayonida yuzaga keladigan motivlar, malaka va kompetensiyalarning takomillashuvi bilan bog'laydi [2]. Bugungi kunda bu yondashuv "kompetensiyalar modeli", "soft skills", "metakompetensiyalar" tushunchalari bilan uyg'unlashadi. Masalan, ishchi malakalari bilan bir qatorda, kommunikativ, kreativ, digital savodxonlik ko'nikmalari ham muhim hisoblanadi. J. L. S. Vigotskiy esa insonning kasbiy shakllanishidagi sifat o'zgarishlarini "psixik rivojlanishning yangi tuzilmalari" bilan bog'laydi va kasbiy shakllanish doimo sifat jihatdan o'zgarib borishini ta'kidlaydi [3]. Shu bilan faoliyat yondashuvi zamonaviy sharoitda shaxsning moslashuvchanligini, ijodkorligini va kasbiy muvaffaqiyatini ta'minlovchi asosiy yondashuvga aylanadi.

Kasbiy rivojlanishni izohlovchi yirik nazariyalardan yana biri J. Hollondning RIASEC modeli bo'lib, unda shaxs tiplari (realistik, intellektual, ijtimoiy, tadbirkor, badiiy, an'anaviy) bilan kasbiy muhit o'rtasidagi moslik kasbiy muvaffaqiyatning asosiy sharti sifatida talqin qilinadi [1]. Bu yondashuv kasbiy tanlovni aniqlashda keng qo'llaniladi.

Zamonaviy konsepsiyalarda kompetensiyaviy yondashuv asosiy o'rin egallaydi. Unda shaxsning nafaqat bilim va malakalari, balki kreativ fikrlashi, kommunikativligi, mas'uliyati, tashabbuskorligi kabi integrativ sifatlari ham kasbiy rivojlanishning muhim ko'rsatkichlari sifatida qaraladi [2]. Shuningdek, motivatsion yondashuv (K. Levin, E. Deci) kasbiy o'sishning harakatlantiruvchi kuchi shaxsning ichki motivlari va o'zini namoyon qilishga bo'lgan ehtiyoji ekanini ta'kidlaydi.

Kasbiy rivojlanish bo'yicha barcha nazariy yondashuvlar birgalikda shuni ko'rsatadiki, zamonaviy sharoitda shaxsning kasbiy o'sishi nafaqat bilim va malaka, balki motivatsiya, kreativlik, kommunikativ va moslashuvchanlik ko'nikmalari bilan belgilanadi. Superning hayot davomida kasbiy bosqichlar konsepsiyasi, Vigotskiy va Leontyevning faoliyat yondashuvi, Parson va Myunstenbergning differensial yondashuvi, Hollondning shaxs tipi modeli hozirgi globallashtirgan, raqamli va tezkor o'zgaruvchi mehnat bozorida to'liq amaliy ahamiyat kasb etadi.





Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Bugungi kunda kasbiy rivojlanish — shaxsning doimiy o'sishi, malakasini yangilash, yangi kompetensiyalarni egallash va shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni bo'lib, u barcha olimlarning g'oyalari bilan uzviy bog'liqdir. Shu bois, zamonaviy karyera va kasbiy taraqqiyot nazariyasi hamda amaliyoti klassik konsepsiyalarni integratsiyalashgan holda, shaxsning kasbiy muvaffaqiyatini, moslashuvchanligini va raqobatbardoshligini ta'minlaydi [1][2][3].

Har bir yondashuv kasbiy rivojlanishning o'ziga xos tomonlarini yoritadi. Shaxsning kasbiy shakllanishi davomida uning malakalari takomillashadi, ayrim sifatlar yo'qoladi, yangilari paydo bo'ladi. Bu jarayon jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanishi bilan ham uzviy bog'liqdir. Demak, kasbiy rivojlanish — shaxsning butun hayoti davomida amalga oshadigan, sifat va miqdoriy o'zgarishlarni o'zida mujassam etgan uzluksiz jarayondir [3].

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Super D. Career Development Theory. — N.Y., 1990.
2. Parsons F., Myunstenberg G., Rubinshteyn S.L., Leontyev A.N. Kasbiy rivojlanish psixologiyasi bo'yicha tadqiqotlar. — M., 1989.
3. Vigotskiy L.S. Psixik rivojlanish nazariyasi. — M., 1982.

